J. Williamson tomonidan 1965-yilda ilgari surilgan klassik "Williamson gipotezasi" mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti bosqichi bilan hududiy nomutanosibliklar darajasi o'rtasidagi U shaklidagi bog'liqlikni ifodalaydi [5]. Mazkur nazariyaga ko'ra, iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich bosqichida hududiy tafovutlar kuchayadi, o'rta bosqichda eng yuqori nuqtaga yetadi va keyingi bosqichlarda konvergensiya tendensiyasi hisobiga asta-sekin kamayadi.

Turistik xizmatlar eksporti misolida P. Krugman tomonidan ishlab chiqilgan "Yangi iqtisodiy geografiya" nazariyasi hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aglomeratsion samaralar, transport xarajatlari va miqyos iqtisodiyoti prizmasi orqali izohlaydi [6]. Mazkur paradigma turizm sohasiga moslashtirilganda, asosiy turistik destinatsiyalarda infratuzilma va madaniy meros obyektlarining jamlanishi konsentratsiyani rag'batlantiruvchi muhim omillar sifatida talqin qilinadi.

R. Barro va X. Sala-i-Martin tomonidan rivojlantirilgan β-konvergensiya konsepsiyasi hududlarning boshlang'ich rivojlanish darajasi bilan keyingi iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish imkonini beradi [7]. Mazkur yondashuvga ko'ra, manfiy β koeffitsiyenti hududlar konvergensiya yo'lida ekanligini, ya'ni

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz/ru/docs/-5841063.

nisbatan kam rivojlangan hududlar tezroq rivojlanayotganini anglatadi. Ushbu metodologiya bugungi kunda turizm geografiyasi va hududiy iqtisodiyot tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda.

Destinatsion raqobatbardoshlik nazariyasi G. Crouch va R. Ritchie tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, unda sayohatchilar tanloviga ta'sir etuvchi makro va mikro omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi [8]. T. Mihalic esa "mas'uliyatli turizm" va "barqaror turizm" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni nazariy jihatdan asoslab, hududiy miqyosda turistik faoliyatning ekologik hamda ijtimoiy oqibatlarini samarali boshqarish zarurligini ta'kidlagan [9]. S.S. Hassan tomonidan ishlab chiqilgan barqaror raqobatbardoshlik konsepsiyasi esa hududiy rivojlanish va turizm boshqaruvi tizimida samarali qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir [10].

O'zbekiston turizm iqtisodiyoti bo'yicha milliy ilmiy maktabga N. Tuxliyev asos solgan bo'lib, uning ilmiy ishlarida hududiy turistik klasterlarning shakllanishi va ularning iqtisodiy o'zaro ta'siri chuqur tahlil qilingan [11]. M.Q. Pardayev tomonidan turistik xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini hududiy kesimda baholash mezonlari ishlab chiqilgan [12]. N.S. Ibragimov esa hududiy turizm boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etib, mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishning hududiy modellarini taklif qilgan [13].

Shuningdek, M. Sigala tomonidan turizmda raqamli transformatsiya va barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda raqamli platformalarning hududiy rivojlanishga ta'siri atroflicha o'rganilgan [14]. WTTCning 2024-yilgi hisobotida jahon turizm sektorining global iqtisodiyotga qo'shgan hissasi 11,1 trillion AQSh dollarini tashkil etgani hamda ushbu sohada 357 million ish o'rni mavjudligi qayd etilgan [15]. OECDning 2024-yilgi turizm trendlari bo'yicha hisobotida esa 38 ta mamlakat misolida hududiy turizm boshqaruvi siyosatlarining qiyosiy tahlili keltirilgan [16].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining 14 ta hududiy birligi — 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri bo'yicha 2024-2025-yillarga oid turistik xizmatlar eksportining yillik rasmiy statistik ma'lumotlariga asoslanadi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Turizm vazirligining rasmiy hisobotlari tashkil etadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmui hududiy konsentratsiya va diversifikatsiya jarayonlarini kompleks baholash imkonini beruvchi beshta asosiy yo'nalishni qamrab oladi. Jumladan, hududiy konsentratsiya darajasini aniqlash va baholash maqsadida bir-birini to'ldiruvchi bir nechta indikatorlardan foydalaniladi. Xususan, Theil entropiya indeksi (T) hududlar o'rtasidagi nomutanosiblik darajasini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qo'llanilib, u formula (1) asosida hisoblanadi.

$$T = (1/n) \cdot \Sigma_i (x_i/\bar{x}) \cdot \ln(x_i/\bar{x}) \qquad (1)$$

bu yerda: $x_i$ - i-hududning eksport hajmi; $\bar{x}$ - barcha hududlar o'rtacha eksport hajmi; n - hududlar soni. T = 0 holatida to'liq teng taqsimot mavjud, T qiymati oshgan sari konsentratsiya darajasi ham oshadi.

Konsentratsiya nisbati (CR4) - top-4 hududning umumiy eksportdagi ulushi:

$$CR4 = \Sigma_{i=1}^{4} S_i \qquad (2)$$

bu yerda: $S_i$ - i-hududning ulushi (kamayuvchi tartibda). 70 % dan yuqori CR4 yuqori konsentratsiyani, 50 % dan past CR4 esa nisbatan teng taqsimotni ko'rsatadi.

Variatsiya koeffitsiyenti (CV) hududiy nomutanosibliklarni standart og'ishish o'rtacha qiymatga nisbati shaklida o'lchaydi:

$$CV = \sigma / \bar{x} \qquad (3)$$

Ikkinchidan, hududlar o'rtasidagi konvergensiya darajasini baholash uchun β-konvergensiya tahlili amalga oshiriladi (formula 4):

$$g_i = \alpha + \beta \cdot \ln(x_{i,o}) + \varepsilon_i \qquad (4)$$

bu yerda: $g_i$ - i-hududning 2024-2025-yillaridagi eksport o'sish sur'ati (%); $x_{i,o}$ - 2024-yildagi (boshlang'ich) eksport hajmi; α, β - regressiya koeffitsientlari; $\varepsilon_i$ - qoldiq. β < 0 manfiy qiymati konvergensiyaning, β > 0 musbat qiymati esa divergensiyaning mavjudligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, hududlar 2024-2025-yillar. o'sish sur'ati va boshlang'ich o'lchami bo'yicha "O'sish-O'lcham" matritsasida joylashtiriladi. Matritsa to'rt kvadrantga bo'linadi: I - Yetakchilar (katta va tez o'suvchi), II - O'sib borayotgan (kichik va tez o'suvchi), III - Orqada qolayotgan (kichik va sekin o'suvchi), IV - Barqaror lider (katta va sekin o'suvchi).

To'rtinchidan, ishlab chiqilgan Integral Barqaror Diversifikatsiya Indeksi (BDI) to'rt sub-indeks asosida hisoblanadi (formula 5):

$$BDI_i = (D_{1i} + D_{2i} + D_{3i} + D_{4i}) / 4 \qquad (5)$$

bu yerda: $D_1$ - iqtisodiy o'sish indikatori (normallashtirilgan o'sish sur'ati); $D_2$ - diversifikatsiya hissasi (1 dan minus normallashgan ulushgacha); $D_3$ - talab intensivligi (har bir sayyohga to'g'ri keladigan eksport hajmi); $D_4$ - reja bajarish koeffitsiyenti (fakt/reja nisbatining normallashtirilgan qiymati).

## TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil yakunlariga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasida turistik xizmatlar eksporti hajmi 5 677,48 million AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yildagi 4 180,80 million AQSh dollariga nisbatan 35,8 foizga oshgan. Mazkur koʻrsatkich mamlakat turizm sohasining yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini hamda eksport salohiyatining sezilarli darajada kengayayotganini tasdiqlaydi. Hududlar kesimidagi dastlabki tahlillar esa turistik xizmatlar eksportining taqsimoti nisbatan yuqori darajada yarim markazlashgan xususiyatga ega ekanligini koʻrsatadi (1-rasm).




1-rasm. Oʻzbekiston viloyatlari boʻyicha turistik xizmatlar eksporti (2024-2025-yillar. mln.AQSh dollari)[2]

Turistik xizmatlar eksporti hajmi boʻyicha yetakchi hudud Toshkent shahri hisoblanadi. Xususan, Toshkent shahri 2024-yilda mamlakat umumiy turistik xizmatlar eksportining 35,8 foizini, 2025-yilda esa 31,5 foizini ta'minlagan. Shu bilan birga, mutlaq qiymatda eksport hajmi 1 497,5 million AQSh dollaridan 1 786,8 million AQSh dollarigacha oshgan. Mazkur holat Toshkent shahrining turizm infratuzilmasi va xizmatlar bozori boʻyicha yetakchi mavqeini saqlab qolayotganini koʻrsatadi.

Ikkinchi oʻrinda Xorazm viloyati qayd etilib, hududda turistik xizmatlar eksporti hajmi 2024-yildagi 378,84 million AQSh dollaridan 2025-yilda 785,17 million AQSh dollarigacha oshgan, ya'ni oʻsish sur'ati 107,3 foizni tashkil etgan. Ushbu yuqori oʻsish sur'ati natijasida Xorazm viloyati an'anaviy yetakchi hududlar — Samarqand va Buxoro viloyatlaridan yuqori pozitsiyani egallagan.

Uchinchi oʻrinda Buxoro viloyati joylashgan boʻlib, unda turistik xizmatlar eksporti 2024-yildagi 436,5 million AQSh dollaridan 2025-yilda 736,9 million AQSh dollarigacha oshgan. Natijada hududning oʻsish sur'ati 68,8 foizni tashkil etgan. Samarqand viloyati esa 605,9 million AQSh dollari hajmidagi eksport koʻrsatkichi va 12,8 foizlik oʻsish sur'ati bilan toʻrtinchi oʻrinni egallagan. Hudud an'anaviy turistik markaz sifatidagi mavqeini saqlab qolgan boʻlsa-da, oʻsish sur'ati boʻyicha boshqa yetakchi hududlardan nisbatan ortda qolgan.

2024-yilda toʻrtinchi oʻrinni egallagan Toshkent viloyati 437,66 million AQSh dollarlik eksport hajmiga ega boʻlgan boʻlsa, 2025-yilda eksport hajmi 504,71 million AQSh dollariga yetganiga qaramay, oʻsish sur'ati 15,3 foizni tashkil etib, hudud beshinchi oʻringa tushgan. Mazkur holat hududlar oʻrtasidagi raqobatning kuchaygani hamda yetakchi hududlar tarkibida qayta taqsimlanish jarayonlari yuz berayotganini koʻrsatadi.

Nisbatan past koʻrsatkichlar Sirdaryo viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasida kuzatilgan. Jumladan, Sirdaryo viloyatida turistik xizmatlar eksporti 25,1 million AQSh dollarini, Qoraqalpogʻiston Respublikasida esa 51,2 million AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu koʻrsatkichlar Toshkent shahri natijalaridan mos ravishda 35-71 baravar past boʻlib, hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy tafovutlar va hududiy diversifikatsiya imkoniyatlarining hozirgi cheklangan darajasini namoyon etadi.

2 Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi ma'lumotlari [19] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Turistik xizmatlar eksportining hududiy taqsimotidagi konsentratsiya darajasini chuqurroq baholash maqsadida bir nechta o‘zaro to‘ldiruvchi indikatorlardan foydalanilgan. Olingan natijalar 1-jadval va 2-rasmda keltirilgan.

1-jadval. Hududiy konsentratsiya indikatorlarining 2024 va 2025-yildagi qiyosi[3]

| Indikator | 2024-yil | 2025-yil | O‘zgarish (%) |
|---|---|---|---|
| Theil T indeksi | 0,5563 | 0,4983 | -10,4 % |
| CR4 (top-4 hudud ulushi, %) | 69,58 | 68,95 | -0,9 % |
| CR1 (yetakchi hudud ulushi, %) | 35,82 | 31,47 | -12,1 % |
| Variatsiya koeffitsiyenti (CV) | 1,2425 | 1,1224 | -9,7 % |
| Gini indikatori | 0,5537 | 0,5349 | -3,4 % |
| Hirschman-Herfindahl indeksi (HHI $\times 10^4$) | 1817 | 1614 | -11,2 % |
| Talqin | Yuqori konsentratsiya | O‘rta-yuqori konsentratsiya | Diversifikatsiya kuchaymoqda |




2-rasm. Turistik xizmatlar eksportining hududiy konsentratsiya indikatorlari[4]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan davr mobaynida barcha asosiy indikatorlar bo‘yicha pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Eng sezilarli o‘zgarishlar CR1 ko‘rsatkichida (-12,1 %) hamda Theil indeksida (-10,4 %) qayd etilgan. Mazkur holat yetakchi hududning monopol ulushi qisqarib borayotganini hamda turistik xizmatlar eksportining hududlar o‘rtasida nisbatan muvozanatli va adolatli taqsimlanayotganini anglatadi.

Konsentratsiyaning pasayish omillarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahri eksportining mutlaq o‘sishi (+289,3 million AQSh dollari) bilan bir qatorda, Xorazm viloyatida (+406,3 million AQSh dollari), Buxoro viloyatida (+300,4 million AQSh dollari) va Navoiy viloyatida (+168,4 million AQSh dollari) kuzatilgan yuqori o‘sish sur’atlari hududlar o‘rtasida nisbatan muvozanatli taqsimot shakllanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, Xorazm va Navoiy viloyatlarining jadal rivojlanishi an’anaviy yetakchi hududlarning ustun mavqeini ma’lum darajada susaytirgan.

Shu bilan birga, CR4 indikatoridagi nisbatan kichik o‘zgarish (-0,9 %) tahlil qilinayotgan tarkibiy siljishlar asosan top-4 hudud ichidagi ulushlarning qayta taqsimlanishi bilan bog‘liqligini, biroq top-4 hududlarning umumiy ulushi deyarli o‘zgarmaganini ko‘rsatadi. Mazkur holat Williamson gipotezasining o‘rta bosqichiga mos kelib, konsentratsiya darajasi pasayib borayotgan bo‘lsa-da, asosiy markaziy hududlar hali ham dominant pozitsiyani saqlab qolayotganini tasdiqlaydi [5].

Hududiy turizm boshqaruvi samaradorligi reja va amaldagi natijalar o‘rtasidagi nisbat orqali baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil uchun belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari hamda amalda erishilgan natijalar o‘rtasidagi qiyosiy tahlil 3-rasmda keltirilgan.

3 Muallif hisob-kitoblari.
4 Muallif tomonidan tuzilgan.




3-rasm. Hududlar o'rtasidagi farq (reja va fakt ko'rsatkichlari bo'yicha)[5]

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan 14 ta hududdan 13 tasi 2025-yil uchun belgilangan reja ko'rsatkichlarini ortig'i bilan bajargan. Eng yuqori ortiqcha ijro Surxondaryo viloyatida qayd etilib, hududda belgilangan 35 million AQSh dollarlik reja o'rniga 162,05 million AQSh dollari miqdoridagi amaliy natijaga erishilgan. Mazkur holat hududning turistik salohiyati dastlabki prognozlardan ancha yuqori ekanligini hamda yangi turistik yo'nalishlar va xizmat kanallarining shakllanayotganini ko'rsatadi.

An'anaviy yetakchi hududlar — Toshkent shahri va Samarqand viloyatida ham reja ko'rsatkichlari amaliy natijalar bilan uyg'unlashgan holda bajarilgan. Jumladan, Toshkent shahrida reja ko'rsatkichi 11,7 foizga, Samarqand viloyatida esa 10,2 foizga ortig'i bilan bajarilgan. Ushbu holat mazkur hududlarda turizm rivojlanishining nisbatan barqaror va prognoz qilinadigan o'sish sur'atlariga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar hududiy turizm boshqaruvi tizimida yangi rivojlanish nuqtalari shakllanayotganini hamda turistik xizmatlar eksportining hududlar o'rtasida bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ilgari nisbatan past ulushga ega bo'lgan hududlarning yuqori sur'atlarda rivojlanishi mamlakat miqyosida hududiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Williamson hamda Barro-Sala-i-Martin nazariyalarining empirik sinovi sifatida β-konvergensiya gipotezasi 14 ta hudud kesimida tekshirildi. Tahlil natijalari 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. β-konvergensiya tahlili: hududlar o'sish sur'ati va boshlang'ich darajasi munosabati[6]

5 Muallif hisob-kitoblari.
6 Muallif hisob-kitoblari. β = -7.228; $R^2$ = 0.023; manfiy β qiymati shartli konvergensiya mavjudligini ko'rsatadi.

β-konvergensiya tahlili natijalariga ko‘ra, regressiya koeffitsiyenti β = -7,23 ni, determinatsiya koeffitsiyenti esa $R^2$ = 0,023 ni tashkil etgan. β ko‘rsatkichining manfiy qiymati shartli konvergensiya gipotezasini tasdiqlab, boshlang‘ich rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan hududlar yuqori sur’atlarda o‘sayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, $R^2$ ko‘rsatkichining past darajada ekanligi (0,023) hududiy o‘sish dinamikasiga boshlang‘ich darajadan tashqari boshqa omillar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Hududiy turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar qatoriga davlat dasturlari va investitsiya loyihalarining ayrim hududlarda yuqori darajada jamlanishi, infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlar, destinatsion marketing kampaniyalarining samaradorligi, tranzit koridorlari hamda xalqaro hamkorlik loyihalarining geografik joylashuvi, shuningdek, madaniy meros obyektlari va tabiiy resurslarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanganligi kiradi. Mazkur omillar hududlarning turistik xizmatlar eksportidagi o‘sish sur’atlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hududlarning strategik pozitsiyasini aniqlash maqsadida ularning 2024-2025-yillardagi o‘sish sur’atlari (ordinata o‘qi) hamda 2025-yildagi eksport hajmi (logarifmik shkala bo‘yicha abssissa o‘qi) asosida “O‘sish-o‘lcham” matritsasi shakllantirildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, hududlar strategik jihatdan bir nechta guruhlarga ajratilgan bo‘lib, bunda median eksport hajmi 205,9 million AQSh dollarini, o‘rtacha o‘sish sur’ati esa 48,3 foizni tashkil etgan.

I-kvadrantga kiruvchi hududlar “yetakchi hududlar” sifatida tavsiflanadi. Mazkur guruhga Xorazm viloyati (785,2 million AQSh dollari; +107,3 %), Buxoro viloyati (736,9 million AQSh dollari; +68,8 %) hamda Navoiy viloyati (273,5 million AQSh dollari; +160,3 %) kiradi. Ushbu hududlar eksport hajmining median darajadan yuqori ekanligi va milliy o‘rtacha ko‘rsatkichdan sezilarli darajada tezroq o‘sayotganligi bilan ajralib turadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur hududlar hududiy turizmning yangi rivojlanish markazlariga aylanib, kelgusida an’anaviy yetakchi hududlar bilan raqobatlasha olish salohiyatiga ega (5-rasm).




5-rasm. Hududlarning “O‘lcham-o‘sish” matritsasidagi joylashuvi[7]

II-kvadrantga kiruvchi hududlar “o‘sib borayotgan hududlar” sifatida tavsiflanadi. Mazkur guruhga Surxondaryo viloyati (162,1 million AQSh dollari; +157,6 %) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (51,2 million AQSh dollari; +66,1 %) kiradi. Ushbu hududlar eksport hajmi bo‘yicha median darajadan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishiga qaramay, yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. Bu esa ularning turizm salohiyati bosqichma-bosqich ortib borayotganini va kelgusida yetakchi hududlar qatoriga qo‘shilish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

7 Muallif tomonidan tuzilgan.

III-kvadrant “kichik va sekin o‘suvchi hududlar” guruhini ifodalaydi. Ushbu guruh tarkibiga Andijon viloyati (135,3 million AQSh dollari; +11,8 %), Jizzax viloyati (78,4 million AQSh dollari; +20,6 %), Qashqadaryo viloyati (120,7 million AQSh dollari; +4,5 %), Sirdaryo viloyati (25,1 million AQSh dollari; +3,9 %) hamda Farg‘ona viloyati (185,4 million AQSh dollari; +25,5 %) kiradi. Mazkur hududlar eksport hajmi va o‘sish sur’ati bo‘yicha milliy o‘rtacha ko‘rsatkichlardan past natijalarni qayd etganligi sababli, ular uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning maxsus dasturlarini ishlab chiqish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

IV-kvadrant esa “barqaror lider hududlar” guruhini ifodalaydi. Ushbu guruhga Toshkent shahri (1 786,8 million AQSh dollari; +19,3 %), Samarqand viloyati (605,9 million AQSh dollari; +12,8 %), Toshkent viloyati (504,7 million AQSh dollari; +15,3 %) hamda Namangan viloyati (226,4 million AQSh dollari; +2,5 %) kiradi. Mazkur hududlar an’anaviy yetakchi mavqeini saqlab qolayotgan bo‘lsa-da, o‘sish sur’atlarining nisbatan pastligi ularda bozorning yetuklashuv bosqichi shakllanganini ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu hududlarda kelgusida miqdoriy kengayishdan ko‘ra xizmatlar sifati, innovatsion turizm mahsulotlari va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur strategik guruhlash tizimi davlat boshqaruvi amaliyotida hududiy turizm siyosatini differensiyalashgan holda shakllantirish uchun muhim tahliliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Har bir kvadrantning iqtisodiy xususiyatlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olgan holda, ularga moslashtirilgan siyosiy hamda institutsional chora-tadbirlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Yuqorida tahlil qilingan ko‘rsatkichlarni yagona tizimga birlashtirish maqsadida to‘rt o‘lchovli kompozit Integral Barqaror Diversifikatsiya Indeksi (BDI) ishlab chiqildi. Mazkur indeks to‘rtta asosiy sub-indeks asosida shakllantirilgan bo‘lib, ular $D_1$ — iqtisodiy o‘sish, $D_2$ — diversifikatsiya hissasi, $D_3$ — talab intensivligi va $D_4$ — reja bajarilish darajasini ifodalaydi. Hisoblash natijalari 6-rasm va 2-jadvalda keltirilgan.




6-rasm. Integral Barqaror Diversifikatsiya Indeksi (BDI) va uning to‘rt tarkibiy o‘lchovi bo‘yicha hududlarning reytingi[8]

2-jadval. Hududlarning BDI indeksi bo‘yicha reytingi (2025-yil)[9]

| Reyting | Hudud | $D_1$ | $D_2$ | $D_3$ | $D_4$ | BDI |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Navoiy viloyati | 1,00 | 0,86 | 1,00 | 0,23 | 0,771 |
| 2 | Surxondaryo viloyati | 0,98 | 0,92 | 0,13 | 1,00 | 0,759 |
| 3 | Xorazm viloyati | 0,66 | 0,57 | 0,63 | 0,16 | 0,505 |
| 4 | Farg‘ona viloyati | 0,15 | 0,91 | 0,56 | 0,02 | 0,409 |
| 5 | Buxoro viloyati | 0,42 | 0,60 | 0,38 | 0,06 | 0,365 |

8 Muallif hisob-kitoblari.
9 Muallif hisob-kitoblari.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Andijon viloyati | 0,06 | 0,94 | 0,43 | 0,01 | 0,358 |
| 7 | Sirdaryo viloyati | 0,01 | 1,00 | 0,23 | 0,17 | 0,354 |
| 8 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 0,40 | 0,99 | 0,00 | 0,00 | 0,348 |
| 9 | Toshkent viloyati | 0,08 | 0,73 | 0,44 | 0,05 | 0,325 |
| 10 | Jizzax viloyati | 0,11 | 0,97 | 0,06 | 0,01 | 0,289 |
| 11 | Qashqadaryo viloyati | 0,01 | 0,95 | 0,19 | 0,00 | 0,288 |
| 12 | Namangan viloyati | 0,00 | 0,89 | 0,06 | 0,02 | 0,241 |
| 13 | Samarqand viloyati | 0,06 | 0,67 | 0,18 | 0,03 | 0,235 |
| 14 | Toshkent shahri | 0,11 | 0,00 | 0,65 | 0,03 | 0,198 |

BDI indeksi boʻyicha tuzilgan reyting natijalari shuni koʻrsatadiki, eng yuqori barqaror diversifikatsiya darajasi Navoiy viloyati (BDI = 0,771) hamda Surxondaryo viloyatida (BDI = 0,759) kuzatilgan. Mazkur hududlar turistik xizmatlar eksportining mutlaq hajmi boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichlarga ega boʻlsa-da, iqtisodiy oʻsish sur'ati, talab intensivligi va reja-fakt nisbatlari boʻyicha eng yuqori natijalarni namoyon etgan. Bu esa ularning hududiy turizm rivojlanishida yuqori moslashuvchanlik va barqarorlik xususiyatlariga ega ekanligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, an'anaviy yetakchi hudud hisoblangan Toshkent shahri BDI reytingida eng past koʻrsatkichni qayd etgan (BDI = 0,198). Mazkur holatning asosiy sababi Toshkent shahrining $D_2$ diversifikatsiya sub-indeksi boʻyicha 0,00 qiymatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Chunki hududning umumiy turistik xizmatlar eksportidagi ulushi juda yuqori (31,5 %) boʻlib, bu diversifikatsiya jarayonlarini cheklovchi omil sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv BDI indeksining boshqaruv konsepsiyasi bilan toʻliq mos keladi, ya'ni barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan haddan tashqari yuqori konsentratsiya va monopol mavqe hududiy muvozanatni cheklovchi omil sifatida baholanadi.

Buxoro viloyati esa BDI reytingida 5-oʻrinni egallab, 0,365 koʻrsatkichni qayd etgan. Ushbu hudud iqtisodiy oʻsish, talab intensivligi va diversifikatsiya parametrlari boʻyicha oʻrta-yuqori natijalarni namoyon etib, hududiy turizm tizimida barqaror rivojlanayotgan hududlardan biri sifatida tavsiflanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari Oʻzbekiston Respublikasida turistik xizmatlar eksportining hududiy taqsimoti 2024-2025-yillarda sezilarli darajada barqarorlashish va diversifikatsiyalashuv bosqichiga oʻtayotganini koʻrsatadi. Tadqiqot natijalari asosida bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin.

Avvalo, barcha asosiy konsentratsiya indikatorlari — Theil indeksi, CR4, CR1, variatsiya koeffitsiyenti hamda Gini indikatori boʻyicha 2024-yildan 2025-yilga kelib pasayish tendensiyasi kuzatildi. Mazkur holat hududiy iqtisodiy resurslarning faqat yetakchi hududlarda jamlanib qolmayotganini, aksincha, ikkinchi va uchinchi darajali hududlarning ham turistik xizmatlar eksportida faol ishtirok etib, yangi rivojlanish markazlari sifatida shakllanayotganini anglatadi.

β-konvergensiya tahlili natijalari ($\beta$ = -7,23; $R^2$ = 0,023) hududlar oʻrtasida zaif shartli konvergensiya mavjudligini tasdiqladi. Ya'ni, boshlangʻich rivojlanish darajasi nisbatan past boʻlgan hududlar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan boʻlsa-da, oʻsish dinamikasiga investitsiya muhiti, infratuzilma, marketing samaradorligi va geografik joylashuv kabi qoʻshimcha omillar ham sezilarli ta'sir koʻrsatmoqda.

Shuningdek, tahlillar 14 ta hududdan 13 tasi 2025-yil uchun belgilangan reja koʻrsatkichlarini ortigʻi bilan bajarganini koʻrsatdi. Eng yuqori ortiqcha ijro Surxondaryo viloyatida (+363 %) hamda Navoiy viloyatida (+82 %) qayd etildi. Ushbu natijalar hududlarning mavjud turistik salohiyati ayrim hollarda amaldagi prognoz koʻrsatkichlaridan yuqori ekanligini hamda rejalashtirish tizimida hududlarning yashirin imkoniyatlarini chuqurroq baholash zarurligini koʻrsatadi.

"Oʻsish-oʻlcham" matritsasi asosida hududlar toʻrtta strategik guruhga ajratildi. Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari "yetakchi hududlar" guruhiga kiritilib, yuqori eksport hajmi va yuqori oʻsish sur'atlari bilan ajralib turdi. Surxondaryo viloyati hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi "oʻsib borayotgan hududlar" sifatida baholandi. Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo va Fargʻona viloyatlari "qoʻshimcha rivojlantirish talab etiladigan hududlar" guruhiga mansub boʻldi. Toshkent shahri, Samarqand, Toshkent viloyati va Namangan viloyati esa "barqaror lider hududlar" sifatida tavsiflandi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan Integral Barqaror Diversifikatsiya Indeksi (BDI) natijalari hududiy turizm rivojlanishini baholashda yangi metodologik yondashuvni taklif etdi. Mazkur indeks boʻyicha eng yuqori natijalar Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida qayd etilgan boʻlsa, an'anaviy yetakchi Toshkent shahri yuqori konsentratsiya ulushi sababli reytingning quyi pogʻonasidan joy oldi. Bu esa barqaror rivojlanish sharoitida

faqat eksport hajmi emas, balki hududiy muvozanat va diversifikatsiya darajasi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan empirik natijalar asosida hududiy turizm boshqaruvini differensial yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, hududlarning BDI reytingi hamda strategik kvadrantdagi joylashuviga mos ravishda maxsus rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ayniqsa, III-kvadrantga kiruvchi hududlarda davlat investitsiyalari hajmini kengaytirish, soliq imtiyozlarini qo‘llash hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, BDI indeksini hududiy turizm boshqaruvining yillik monitoring vositasi sifatida joriy etish hamda uning ko‘rsatkichlaridan hududiy rivojlanish strategiyalarining samaradorligini baholashda foydalanish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — 2022-yil 29-yanvar. https://lex.uz/ru/docs/-5841063.
2. Brundtland G. H. et al. Our Common Future. — Oxford: Oxford University Press, 1987.
3. UNWTO. Tourism for SDGs Platform: 17 Sustainable Development Goals in Tourism. — Madrid: World Tourism Organization, 2023. — URL: tourism4sdgs.org
4. Theil H. Economics and Information Theory. — Amsterdam: North-Holland Publishing Company, 1967.
5. Williamson J. G. Regional inequality and the process of national development: A description of the patterns // Economic Development and Cultural Change. — 1965. — Vol. 13. — No. 4 (Part 2). — P. 1-84.
6. Krugman P. The role of geography in development // International Regional Science Review. — 1999. — Vol. 22. — No. 2. — P. 142-161.
7. Barro R. J., Sala-i-Martin X. Convergence // Journal of Political Economy. — 1992. — Vol. 100. — No. 2. — P. 223-251.
8. Ritchie J. R. B., Crouch G. I. The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. — Wallingford: CABI Publishing, 2003.
9. Mihalic T. Sustainable-responsible tourism discourse: Towards “responsustable” tourism // Journal of Cleaner Production. — 2016. — Vol. 111. — P. 461-470.
10. Hassan S. S. Determinants of market competitiveness in an environmentally sustainable tourism industry // Journal of Travel Research. — 2000. — Vol. 38. — No. 3. — P. 239-245.
11. Tuxliyev N. Tourism Development Model in Uzbekistan and Its Specific Characteristics // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. — Vol. 11. — No. 3. — P. 73-78.
12. Pardayev M. Q. Development of Service, Hospitality, and Tourism Sectors: Problems and Their Solutions. — Tashkent: Iqtisod-Moliya, 2008.
13. Ibragimov N. S. Destinatsion menejment: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san’ati. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.
14. Sigala M. Tourism and COVID-19: Impacts and implications for advancing and resetting industry and research // Journal of Business Research. — 2020. — Vol. 117. — P. 312-321.
15. WTTC. Economic Impact Report 2024: Global Tourism Recovery and Future Outlook. — London: World Travel & Tourism Council, 2024. — 56 p.
16. OECD. Tourism Trends and Policies 2024. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 392 p. — DOI: 10.1787/80885d8b-en.

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (3)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz